SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI .....	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI .....	1272
Babanazarova Gulzar Ziatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UN DARISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH .....	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI .....	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN .....	1286
Shokhrukh Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI .....	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY TAMOYILLARNING O'RNI .....	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS .....	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI .....	1310
Maxmudov Abduxalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI .....	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durдона Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI .....	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATSION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH .....	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА .....	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI .....	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ .....	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI .....	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ .....	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
<b>Muxammedov Murod Muxamedovich</b>	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
<b>Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna</b>	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATSION SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
<b>Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
<b>He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
<b>Ruziyeva Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi</b>	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI.....	1375
<b>Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi</b>	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....	1380
<b>Тулибаева Камола</b>	
АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ БАНКОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ.....	1385
<b>Ходжаева Феруза Авазхановна</b>	
XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI.....	1389
<b>Qurbanov Feruz Bahramovich</b>	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	1395
<b>Alimova Oydin Baxtiyarovna</b>	
OUTSOURCING: A MODERN WAY TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ENTERPRISES.....	1402
<b>Dauletaliyeva Aymereke Sagievna</b>	
O'ZBEKISTONDA YUK VAGONLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1406
<b>Kaydarov Ismatulla</b>	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA INNOVATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI.....	1412
<b>Tursunova Nazokat Tolibjonovna</b>	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA AKTIVLAR SIFATINI MUSTAQIL BAHOLASH (AQR) MARKAZINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI.....	1418
<b>Suxrob G'aybulloev</b>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING BUDJET MABLAG'LARIDAN OQILONA FOYDALANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI.....	1427
<b>Kasimova Gulyor Axmatovna, Esenbayeva Biybinaz Maxmut qizi</b>	
INNOVATSION MENEJMENT METODOLOGIYASI: NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI AHAMIYATI.....	1432
<b>Atamatov Abduxalil Salomovich</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTITSIYALARNI "CROWD INVESTING" PLATFORMALARI ORQALI JALB ETISH.....	1437
<b>Ibragimov G'anjon G'ayratovich</b>	
TURIZM KLASSTERLARINING EVOLUTSIYASI: AN'ANAVIY MAJMUALARDAN RAQAMLI KLASSTERLARGACHA.....	1441
<b>Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi</b>	
IPO O'TKAZISH BOSQICHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI TAHLILI.....	1446
<b>Mamatmurodov Alisher Saparboyevich</b>	



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORPORATIV MADANIYATNING ZAMONAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	1455
<b>Suyunov Dilmurod Xolmuradovich</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV RESURSLARINI SAMARALI TAQSIMLASHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	1463
<b>Amanbaev Amanali Ortazbaevich</b>	
FORECASTING THE EFFICIENCY OF SOLID WASTE RECYCLING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	1467
<b>Axmedov Sheramat Umurxojayevich</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1472
<b>Toxirova Gavxaroy Tolibjon qizi</b>	
PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE INSTITUTIONAL TRANSFORMATION OF ACCOUNTING AND AUDITING SYSTEMS IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1477
<b>Jumanazarov Ruzimurod, Rabbimov Elbek</b>	
TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	1481
<b>Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich</b>	
XORAZM VILOYATIDA SUV RESURSLARI TANQISLIGI VA TUPROQ DEGRADATSIYASINING MINTAQANING EKOLOGIK-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI.....	1486
<b>Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHİYATINING HUDUDIY TAFOVUTLARI TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA (2021–2025) .....	1491
<b>Yaqubov San'at Shonazarovich</b>	
KICHIK VA O'RTA AGROBIZNESLARNING EKSPORT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1501
<b>Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich</b>	
WTO ACCESSION AND ECONOMIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM VIETNAM AND KAZAKHSTAN .....	1507
<b>J.Ya. Nurillaev</b>	
MILLIY IQTISODIYOTDA TASHQI EKOLOGIK ZARARLARNI ICHKILASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	1513
<b>Sodikov Zokir Rustamovich</b>	



UO'K (UDK): 330.15:504.06

# MILLIY IQTISODIYOTDA TASHQI EKOLOGIK ZARARLARNI ICHKILASHTIRISH MEXANIZMLARI

**Sodikov Zokir Rustamovich**

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi  
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrası dotsenti,  
iqtisodiyot fanlari nomzodi  
ORCID: 0000-0002-0195-4573  
Email: [zokirsodiqov1@gmail.com](mailto:zokirsodiqov1@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada milliy iqtisodiyot sharoitida tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, tashqi effektlar mohiyati, ularning iqtisodiy oqibatları hamda Pigou soliqlari, emissiya kvotalari va subsidiyalar kabi ichkilashtirish vositalari samaradorligi o'rganiladi. Tadqiqotda ekologik siyosatning iqtisodiy o'sish bilan atrof-muhitni muhofazasi borasida muvozanatni ta'minlashdagi roli asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** tashqi effektlar, ekologik zarar, ichkilashtirish, Pigou solig'i, emissiya savdosi, barqaror rivojlanish, ekologik siyosat.

**Abstract.** This article examines the theoretical foundations and practical mechanisms of internalizing environmental externalities in the national economy. It analyzes the nature of externalities, their economic consequences, and evaluates the effectiveness of policy instruments such as Pigouvian taxes, emission trading systems, and subsidies. The study demonstrates the role of environmental policy in balancing economic growth and environmental sustainability.

**Key words:** externalities, environmental damage, internalization, Pigouvian tax, emission trading, sustainable development, environmental policy.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические основы и практические механизмы интернализации экологических внешних эффектов в национальной экономике. Анализируется сущность внешних эффектов, их экономические последствия, а также эффективность инструментов регулирования, таких как налоги Пигу, системы торговли квотами и субсидии. Обосновывается роль экологической политики в обеспечении баланса между экономическим ростом и устойчивым развитием.

**Ключевые слова:** внешние эффекты, экологический ущерб, интернализация, налог Пигу, торговля квотами, устойчивое развитие, экологическая политика.

## KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda ekologik muammolar — iqlim o'zgarishi, havo va suvning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi — tobora kuchayib bormoqda. Ushbu muammolarning asosiy sabablaridan biri sifatida tabiatga yetkazilgan ziyonlarni yoki tashqi samarani yoxud zararlarni, ya'ni iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan ekologik yo'qotishlarning unga omil bo'lgan tovarlarning bozor narxlarida aks etmaydigan yondashuv tarzi tahlil qilinadi. Milliy iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqaruvchilar ko'pincha faqat o'zlarining ishlab chiqarish xarajatlarini (MPC - Marginal Private Cost — Marjinal xususiy xarajat) hisobga oladi, ammo jamiyatga yetkazilayotgan ekologik zararlarni (MEC — Marginal External Cost — Marjinal tashqi (ekologik) xarajat)



e'tibordan chetda qoldiradi. Natijada mamlakatda ortiqcha ishlab chiqarish va tabiiy resurslarning samarasiz taqsimlanishi yuzaga keladi. Shu sababli bugungi kunda ekologik muammolarning girdobiga g'arq bo'lib ketishni xohlamagan jahon jamoatchiligi ishlab chiqarish faoliyati natijasida kompaniya tomonidan tashqaridagi tabiatga yetkazilgan tashqi zararlarni korxonalarining zimmasiga yuklash uchun ichkilashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishga va uni amalda qo'llashga qaratilgan mulohazalarni o'rtaga tashlashni ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblamogda.

Milliy iqtisodiyotda ekologik tashqi zararlarni ichkilashtirishning ilmiy asoslarini o'rganish va samarali mexanizmlarini taklif etish asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilangan:

- tashqi samaralarning mohiyatini tahlil qilish;
- ekologik zararlarning iqtisodiy oqibatlarini baholash;
- ichkilashtirish mexanizmlarini (soliq, kvota, subsidiya) o'rganish;
- ichkilashtirish mexanizmlarining samaradorligini baholash;
- milliy iqtisodiyot uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish faoliyati va uning ekologik jarayonlarga ta'siri tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish mexanizmlari va ularning iqtisodiy samaradorligi bilan bog'liq munosabatlar tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyotda tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish mexanizmlari — bu iqtisodiy tizimlarda ekologik zararlarni moliyaviy va siyosiy instrumentlar orqali kamaytirish yondashuvi bo'lib, iqtisodiyot, ekologiya va davlat siyosati doirasida bugungi kunda chuqur tadqiq etilmoqda. Xususan, Pigou solig'i modeli tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirishning klassik yondashuvi bo'lib, u bozor tashqarisidagi manfiy samaralarni ichki iqtisodiy mexanizmlar orqali bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, uning asarlarida tashqi zararlarni soliq orqali ichkilashtirilishi kerakligi birinchi marta asoslangan<sup>1</sup>. Keyingi tadqiqotlar Pigou solig'ini karbon solig'i, chiqindi solig'i va atrof-muhit bojlari orqali qo'llash metodologiyasini rivojlantirdi<sup>2</sup>. Bu yondashuv asosida ekologik bojar va soliq xarajatlari bozor mexanizmini tiklashga xizmat qiladi. Chunki chiqindilarni kamaytirish uchun ishlab chiqaruvchilar o'z xarajatlarini ko'paytirib, ekologik toza texnologiyalarga o'tishga majbur bo'ladi<sup>3</sup>. Shuningdek, tashqi zararlarni ichkilashtirish instrumenti sifatida savdo qilinadigan chiqindi kvotalari 1960–1970-yillarda ishlab chiqilgan<sup>45</sup>.

Bu yondashuvda ruxsat berilgan zarar miqdori bo'yicha kvotalar taqsimlanadi va undan ortiq zarar uchun bozor narxi shakllanadi. Ko'plab tadqiqotlar GHG (Greenhouse Gas) kvota savdosi modelini AQSh, Yevropa va Osiyo bozorlari misolida tahlil qilgan<sup>67</sup>. Zero, kvota savdosi bozor mexanizmi orqali samaradorlikni ta'minlaydi. Chunki bunda eng arzon zarar kamaytirish usullar birinchi navbatda joriy etiladi. Ayni paytda, ekologik rag'batlar va texnologiyalarni joriy etishda subsidiyalar va grantlar muhim rol o'ynaydi<sup>8</sup>. Zero, yashil investitsiyalarga subsidiya berish va energiya tejavchi texnologiyalarni kreditlashtirish muhim hisoblanadi. Aynan bu yondashuv ishlab chiqaruvchi va iste'molchini ekologik toza yechimlarni qabul qilishga rag'batlantiradi. Ayni paytda, ekologik zararlarni ichkilashtirish borasida fiskal instrumentlar ustida mamlakatda ham ko'plab tadqiqotlar qilinmoqda. Xususan, ekologik soliq<sup>9</sup> qonunchiligi tahlil qilinib, Pigou solig'i tamoyillarining milliy sharoitda qo'llanilishi muhokama qilingan. Shuningdek, milliy fiskal siyosat va ekologik bojlarning<sup>10</sup> roli ham tahlil qilinib, uning iqtisodiy samaradorlikdagi ta'siri baholangan. Bundan tashqari, ayrim tadqiqotlarda soliq mexanizmlarining chiqindilarni kamaytirishga<sup>11</sup> ta'siri tahlil qilingan bo'lsa, ba'zilarida karbon solig'i imkoniyatlari va cheklavlari<sup>12</sup> milliy sharoitlardan kelib chiqib, muhokama qilingan. Bu tadqiqotlarda ekologik bojning ekologik,

1 Pigou, A. C. (1920). *The Economics of Welfare* (4th ed.). Macmillan.

2 Pearce, D. W., & Turner, R. K. (1990). *Economics of Natural Resources and the Environment*. Johns Hopkins University Press.

3 Tietenberg, T. (2006). *Environmental and Natural Resource Economics* (7th ed.). Pearson.

4 Dales, J. H. (1968). *Pollution, Property & Prices: An Essay in Policy-Making and Economics*. University of Toronto Press.

5 Montgomery, W. D. (1972). Markets in licenses and efficient pollution control programs. *Journal of Economic Theory*, 5(3), 395–418. [https://doi.org/10.1016/0022-0531\(72\)90043-0](https://doi.org/10.1016/0022-0531(72)90043-0)

6 Ellerman, A. D., Joskow, P. L., Schmalensee, R., Montero, J.-P., & Bailey, E. M. (2000). *Markets for Clean Air: The U.S. Acid Rain Program*. Cambridge University Press.

7 Stavins, R. N. (1998). What can we learn from the grand policy experiment? Lessons from SO2 allowance trading. *Journal of Economic Perspectives*, 12(3), 69–88. <https://doi.org/10.1257/jep.12.3.69>

8 OECD. (2019). *Fiscal Policies for Better Environment: Trends and Opportunities for Policy Makers*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/689afed1-en>.

9 Mirzaev, A. (2018). Atrof-muhitni muhofaza qilish soliqlari samaradorligi: O'zbekiston misoli. *Iqtisodiyot va ekologiya jurnali*, 2(4), 45–58.

10 Rajabov R. (2020). Ekologik siyosatda fiskal instrumentlar. *Toshkent iqtisodiyot ilmiy axborotnomasi*, 13(1), 22–37.

11 Ergashev, M. (2019). Chiqindilar solig'i va atrof-muhit samaradorligi. *Milliy iqtisodiyot tadqiqotlari*, 5(8), 74–88.

12 Ismoilova N. (2017). Carbon solig'i: O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi. *Iqtisodiy tahlil va boshqaruv*, 9(2), 33–49.



ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi ko'rsatilib, xalqaro tajribalar asosida ushbu mexanizmlar tahlili berilgan. Shu bois, mazkur yo'nalishda tadqiqotlarni kengaytirish milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi ekologik salbiy ta'sirini ichkilashtirish masalasini o'rganish dolzarbligini ko'rsatadi va izlanishlar qilish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, adabiyotlarda tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish borasida xalqaro tadqiqotlarda bozor mexanizmlariga, milliy tadqiqotlarda esa fiskal instrumentlar va normativ tartibga ko'proq ustuvorlik qaratiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu mavzuni tadqiq qilishda ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, iqtisodiy-matematik modellashtirish ( $MSC = MPC + MEC$ ), regressiya tahlili ( $CO_2$  chiqindilari va iqtisodiy omillar), xalqaro tajribadan taqqoslash usuli, tizimli yondashuv metodologiyasiga asoslanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotda tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish (internalizatsiya qilish) — bu iqtisodiy faoliyat natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi zimmasiga yuklash, ya'ni bu tabiatga va atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni bozor iqtisodiyoti sharoitida unga sabab bo'lgan tovarlar qiymatiga yoki narxlariga kiritish bilan bog'liq jarayonni bildiradi. Chunki agar, ishlab chiqaruvchi korxonada tabiatni ifloslantirayotgan bo'lsa, u bu zarar uchun badalni to'lashga majbur bo'lishi kerak. Ana shu amaliyot tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish sifatida talqin qilinadi. Zero, bu tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish amaliyoti joriy etilmasa, uning o'ziga xos ikki yo'nalishdagi salbiy natijalari kelib chiqadi.

Ulardan birinchisi mamlakatda tabiatga yetkazilgan zararining badalini to'lamasdan, ayrim korxonalar tomonidan ortiqcha ishlab chiqarish amalga oshiriladi va natijada tabiiy resurslardan samarasiz foydalaniladi, ikkinchisi esa ana shu tabiatga yetkazilgan zararining badali ushbu jamiyatda yashaydiganlar tomonidan moliyaviy ko'rinishda va ijtimoiy jihatdan salomatlikka yetkazilgan ziyonlarni tiklash ko'rinishida qoplab berish vaziyati kelib chiqadi. Shuning uchun mazkur muammoni chuqur va har tomonlama bartaraf qilish ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham, ekologik jihatdan ham ustuvor vazifa hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish tushunchasi tashqi samara nazariyasiga asoslanadi. Milliy iqtisodiyotda tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish degani — bu iqtisodiy faoliyat natijasida jamiyat va atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni ishlab chiqaruvchilarning o'z xarajatlariga kiritish jarayonini bildiradi. Ya'ni, bunda tabiatga yoki atrof-muhitga "Kim zarar yetkazsa — o'sha to'laydi" tamoyili hisoblanadi. Tashqi samara (externalities) nazariyasi tushunchasi mashhur iqtisodchi Arthur Pigou<sup>13</sup> tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaga asoslanadi. Tashqi samara bu bozor bitimida ishtirok etmagan uchinchi tomonga ta'sir sifatida talqin qilinadi. U salbiy tashqi samara sifatida ifloslanish, chiqindilar va boshqalar ko'rinishida kuzatilsa, ijobiy tashqi samara esa ta'lim, innovatsiya va boshqa shaklda yuzaga chiqishi mumkin. Bozor faqat MPC (Marginal Private Cost — marjinal xususiy xarajat) bo'lmish, bu ishlab chiqaruvchi qo'shimcha 1 birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun qiladigan xarajatini hisobga oladi. Masalan, agar zavod 1 dona qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarsa, unga, xomashyo va ishchi kuchi kerak bo'ladi hamda elektr energiyasi sarflanadi. Shu qo'shimcha xarajat marjinal xususiy xarajat sifatida talqin qilinadi. Xususan, sement zavodi 1000 tonna sement ishlab chiqarayotgan bir paytda yana 1 tonna shu mahsulotdan ishlab chiqarish uchun 50\$ xomashyoga, 20\$ ish haqiga va 10\$ energiyaga sarflab, jami qo'shimcha 80\$ chiqim qildi.

Demak, bu zavodning marjinal xususiy xarajati 1 tonna sement uchun 80\$ga teng bo'ldi. Bunda eng muhim jihati MPC faqat ishlab chiqaruvchining o'zi qilgan xarajatlari bo'lib, unda havoni ifloslantirish, odamlar sog'lig'iga yetkazilgan zarar va ekologik muammolarni keltirib chiqarganlik uchun xarajatlarni hisobga olmaydi. Chunki firma foyda olish uchun qaror qabul qiladi, u faqat o'z xarajatini ko'radi. Shu bois, marjinal tashqi (ekologik) xarajat firmaning hisobida mavjud emas. Shuning uchun bozor qarori MPCga asoslanadi. Bunda asosiy muammo ekologik zararining ortishi natijasida kelib chiqadi. Chunki agar faqat MPC asosida qaror qabul qilinsa, mahsulot arzon ko'rinadi va ishlab chiqarish hajmi ko'payadi. Aslida to'liq real xarajat:  $MSC = MPC + MEC$  bo'lishi kerak. Demak, MPC — bu ishlab chiqaruvchining qiladigan xarajati bo'lib, u to'liq xarajatni aks ettirmaydi. Chunki unda ekologik zarar mavjud emas. Shuning uchun bozor noto'g'ri qaror qiladi va buning natijasi o'laroq ortiqcha ishlab chiqarish yuz beradi.

Natijada esa ekologik muammolar kelib chiqadi va ijtimoiy yo'qotish sodir bo'ladi. Bu holat bozorning muvaffaqiyatsizligi hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda real hayotda xarajat  $MSC = MPC + MEC$  tarzida

13 Arthur Cecil Pigou (18.11.1877–07.03.1959) — ingliz iqtisodchisi, zamonaviy farovonlik iqtisodiyoti (welfare economics) asoschilaridan biri hisoblanadi. U tashqi samaralar va ularni davlat siyosati orqali tartibga solish g'oyasi mashhur. University of Cambridge professori. The Economics of Welfare (1920) asari. A.C.Pigou birinchi bo'lib, ba'zi iqtisodiy faoliyatlar jamiyatga zarar (yoki foyda) keltiradi, degan. Lekin, bu bozor narxida aks etmaydi.



hisob-kitob qilinishi<sup>14</sup> kerak. Internalizatsiya qilish — bu marjinal tashqi xarajatni marjinal xususiy xarajatga aylantirish, ya'ni,  $MPC \rightarrow MPC + MEC = MSC$  jarayoni hisoblanadi. Natijada ishlab chiqaruvchi real xarajatni ko'radi, noto'g'ri qarorlar kamayadi va resurslar samarali taqsimlanadi. Zero, Zavod havoni ifloslantirsa va bu zararni qoplab, bermasdan, faqat o'zining xarajatlari bilan kifoyalansa, bundan jamiyat zarar ko'radi, ammo, zavod buning badalini to'lamaydi. Agar, shu jarayoni internalizatsiya qilinsa, zavod ham keltirgan zarari uchun pul to'laydi. Natijada ishlab chiqarish hajmi kamayadi va ekologiya shunga muvofiq darajada yaxshilanadi. Shu bois, internalizatsiya qilish usullari mavjud bo'lib, ular, Pigouning soliq g'oyasiga binoan zarar miqdoriga teng soliq undirilishi va u eng samarali klassik usul sifatida marjinal tashqi xarajat shaklida to'g'ridan-to'g'ri narxga qo'shilishi mumkin. Shu bois, ekologik jarimalar va to'lovlar orqali tabiatni ifloslantirganlik uchun undirilishi, kvotalar va limitlar orqali ishlab chiqarish yoki chiqindiga cheklov joriy etish, Ruxsatnomalar bozori (cap-and-trade) shaklida ifloslanish huquqini sotish mumkin. Qolaversa, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati tarzida mahsulotning hayot sikli oxirigacha javobgarligini tadbirkorlar zimmasiga yuklash mumkin.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotda internalizatsiya qilish faoliyati ekologik soliqlar, chiqindi uchun to'lovlar, sanoatni tartibga solish, filtr va texnologik talablarni joriy etish yo'llari bilan amalga oshirilmoqda. Masalan, sement zavodlariga filtr o'rnatish, chiqindi normativlarini joriy etish va ekologik nazoratni amalga oshirish kabilar. Iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan internalizatsiya qilish natijasida ijobiy samaralar sifatida resurslar samarali taqsimlanadi, ekologik zarar kamayadi va uzoq muddatli barqaror o'sish ta'minlanadi. Uning muammolari esa xarajatlar oshadi, korxonalar qarshiligi kuzatiladi va nazorat murakkabligi kelib chiqadi. Umuman, internalizatsiya qilish — bozorni "to'g'rilash mexanizmi" bo'lib, uning asosiy vazifasi xususiy qarorlar bilan ijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Agar bu amalga oshsa, bozor samaradorligi oshadi, ekologik muammolar kamayadi va mamlakatda barqaror rivojlanish ta'minlanadi.

Demak, tashqi samara bozor muammosi bo'lib, unda marjinal tashqi xarajat hisobga olinmaydi. Internalizatsiya qilish marjinal tashqi xarajatni marjinal xususiy xarajatga qo'shish natijasida marjinal ijtimoiy xarajat asosida qaror qabul qilinishini ta'minlaydi. Tashqi samaralar — bu iqtisodiy subyektlar (masalan, ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi) faoliyati natijasida kelib chiqadigan, lekin bozor narxlariga kiritilmagan ijobiy yoki salbiy ta'sirlardir. Salbiy tashqi samaralar odatda ekologik zarar sifatida (havo va suv resurslarini ifloslantirish, buzish, chiqindilar chiqarish) namoyon bo'ladi. Ijobiy tashqi samaralar jamiyat foydasiga xizmat qiladigan (masalan, ta'lim olish jamiyat uchun bilim va malaka oshiradigan) holatlarda kelib chiqadi. Tashqi samaralar bozor samaradorligini pasaytiradi, chunki bozor narxlarini faqat xususiy xarajat va daromadlarni aks ettiradi, lekin ijtimoiy xarajat va foydani hisobga olmaydi.

Shuning uchun tashqi zararni ichkilashtirish ishlab chiqaruvchini o'z xarajatlariga marjinal tashqi xarajatni ham qo'shishga majbur qiladi. Buni amalga oshirish uchun soliq, jarima, litsenziya, ekologik to'lovlar va tartibga soluvchi qoidalar qo'llaniladi. Masalan, zavod ishlab chiqarishi natijasida suvni ifloslantiradi. Shunda marjinal xususiy xarajat zavodda 50 so'm/tonna bo'lsa, ekologik zarar marjinal tashqi xarajat 20 so'm/tonna bo'ladi. Natijada marjinal ijtimoiy xarajat 70 so'm/tonna bo'ladi. Agar zavod faqat 50 so'm/tonna asosida ishlab chiqarishni davom ettirsa, jamiyatga har bir tonna bo'yicha 20 so'm zarar yetadi. Shunday vaziyatda soliq yoki jarima orqali marjinal tashqi xarajat ichkilashtirilsa, ishlab chiqarish hajmi kamayadi va atrof-muhit himoyalanaadi. Tashqi ekologik zararni ichkilashtirishning asosiy mohiyati shundaki, adolatni tiklash orqali kim zarar yetkazsa — o'sha to'laydi, ya'ni "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyiliga (Polluter pays principle) asoslanadi. Bozorni real shartlarga muvofiqlashtirish orqali bozor muvaffaqiyatsizliklari (market failure) bartaraf etiladi. Shuningdek, resurslardan samarali foydalanish natijasida korxonalar chiqindini kamaytiradi va ekologik jihatdan toza texnologiyaga o'tadi. Zero, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun iqtisodiy o'sish bilan ekologik muvozanat uyg'unlashtiriladi.

Milliy iqtisodiyotda tashqi ekologik zararni ichkilashtirish mexanizmlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

Pigouning g'oyasiga binoan ifloslantiruvchi faoliyatga soliq solish, bunda soliq ekologik zarar miqdoriga teng bo'ladi. Masalan, zavod har 1 tonna CO<sub>2</sub> uchun soliq to'laydi. Natijada ishlab chiqarish va chiqindi kamayadi.

Emissiya kvotalari (cap-and-trade) orqali davlat limit belgilaydi va korxonalar o'zaro savdo qiladi. Misol: 1000 tonna limit beriladi. Kimki bu limitdan kam ifloslantirsa, ortib qolgan kvotani sotadi. Natijada samaradorlik oshadi va bozor mexanizmi ishlaydi.

Subsidiyalar orqali ekologik toza texnologiyalar rivojlantiriladi. Masalan, quyosh panellari uchun subsidiya berilsa, yashil iqtisodiyot rivojlanadi.

Milliy iqtisodiyotda zavod yiliga 1000 tonna mahsulot ishlab chiqaradi va havoga zararli gaz chiqaradi. Agar ichkilashtirish bo'lmasa, ishlab chiqarish ortadi va ekologiya yomonlashadi. Agar ichkilashtirish joriy etilsa, soliq yoki kvota belgilanadi, zavod filtr o'rnatadi va chiqindi kamayadi.

Milliy iqtisodiyotda tashqi ekologik zararni ichkilashtirish natijasida ishlab chiqarish optimal darajaga tushadi, ekologiya yaxshilanadi, xarajatlar adolatli taqsimlanadi, innovatsiya rivojlanadi. Tashqi ekologik

14  $MSC$  (Marginal Social Cost - marjinal ijtimoiy xarajati) =  $MPC$  (Marginal Private Cost - marjinal xususiy xarajati) +  $MEC$  (Marginal External Cost - marjinal tashqi xarajati) yoki  $MSC = MPC + MEC$  bo'lishi kerak.



zararlarni ichkilashtirish — bu iqtisodiy tizimni to'g'rilash mexanizmi, ekologik muammolarni bozor orqali hal qilish usuli, barqaror rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi. Demak, eng muhim g'oya: "Kim ifloslantirsa — o'sha to'laydi" tamoyili ustuvor hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda tashqi ekologik zararni ichkilashtirish va tashqi samaralar nazariyasining evolyutsiyasi o'ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi. Chunki tashqi ekologik zararni ichkilashtirish va tashqi samaralar nazariyasi iqtisodiy tafakkur rivojida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha ilk bor A.C. Pigou tomonidan tizimli ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, u bozor mexanizmi nomukammalligini asoslagan. A.C.Pigouga ko'ra, iqtisodiy subyektlar o'z qarorlarini qabul qilishda faqat xususiy manfaatlarni hisobga oladi, natijada jamiyat uchun qo'shimcha xarajatlar yuzaga keladi<sup>15</sup>. Keyinchalik R.H.Coase tashqi samaralar muammosiga yangi yondashuv taklif qilib, mulk huquqlarining aniqligi va muzokaralar orqali tashqi ta'sirlarni kamaytirish mumkinligini ilgari surgan. Biroq R.Coase yondashuvi tranzaksiya xarajatlari nolga yaqin bo'lgan ideal sharoitlarda amal qiladi. Real iqtisodiyotda esa axborot nomukammalligi va institutsional cheklovlar tufayli davlat aralashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda tashqi samara "bozor muvaffaqiyatsizligi"ning asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida ko'riladi. Bu esa ichkilashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini yanada kuchaytiradi. Shu bois, bugungi kunda jahondagi mislsiz industrial taraqqiyot natijasida ekologik tashqi samaralar va ularning iqtisodiy oqibatlar kelib chiqmoqda. Shuning uchun ekologik tashqi samaralar sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lmoqda. BMT tomonidan ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

- CO<sub>2</sub> chiqindilari global iqlim o'zgarishining asosiy omili bo'lmoqda;
- sanoat ishlab chiqarishi ekologik degradatsiyani tezlashtirmoqda;
- tabiiy resurslardan haddan tashqari ayovsiz foydalanish uzoq muddatli iqtisodiy zararni keltirib,

chiqarmoqda. Shu bois, ekologik tashqi samaralar nafaqat atrof-muhitga, balki iqtisodiy o'sishning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada Environmental Kuznets Curve (EKC) gipotezasida<sup>16</sup> o'ziga xos yondashuv mavjud. Ekologik iqtisodiyotda muhim nazariyalardan biri — EKC gipotezasi. Bu nazariyaga ko'ra, iqtisodiy o'sishning dastlabki bosqichlarida ekologik zararlarni ortadi, ammo ma'lum darajadan keyin kamaya boshlaydi. Bu nazariya ko'plab empirik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan bo'lsa-da, ayrim olimlar uning universalligiga shubha qiladilar. Chunki dunyoda barcha mamlakatlar uchun bir xil ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-geografik shart-sharoitlar mavjud bo'lmagani kabi rivojlanish tendensiyasi bo'yicha ham bunday trayektoriya mavjud emas.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy iqtisodiyotda tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish zaruriyati bo'yicha ushbu xulosa va takliflarni o'rtaga tashlash mumkin. Xususan:

Iqtisodiy instrumentlarni kuchaytirish uchun ekologik (Pigou) soliqlarni izchil joriy etish, CO<sub>2</sub> emissiyalariga narx belgilash (carbon pricing) va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatga differensial soliqlarni qo'llash kerak.

Bozor mexanizmlarini rivojlantirish orqali emissiya kvotalari savdosi (ETS – Emission Trading System) ni joriy etish, "ifloslantiruvchi to'laydi" (polluter pays principle) tamoyilini mustahkamlash va Coase Theorem asosida mahalliy darajada kelishuv mexanizmlarini rivojlantirish kerak.

Institutsional va huquqiy bazani takomillashtirish orqali mulk huquqlarini aniq belgilash (tabiiy resurslarga nisbatan), ekologik monitoring va nazoratni raqamlashtirish, ekologiya qonunini xalqaro standartlarga moslash kerak.

Sanoat siyosatini "yashillashtirish" uchun yashil texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya ulushini kengaytirish kerak.

Moliyaviy mexanizmlar orqali "yashil moliya" instrumentlarini rivojlantirish (green bonds, ESG investitsiyalar), ekologik loyihalar uchun imtiyozli kreditlar berish, davlat-xususiy sheriklik asosida ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash kerak.

Ijtimoiy va institutsional omillar orqali ekologik madaniyatni oshirish, aholi va biznesning ekologik mas'uliyatini kuchaytirish, ta'lim tizimiga ekologiya va ekologik iqtisodiyotga oid fanlarni keng joriy etish kerak.

15 Ronald Harry Coase — mashhur ingliz iqtisodchisi bo'lib, zamonaviy institutsional iqtisodiyot va huquq-iqtisod (law and economics) yo'nalishining asoschilaridan biri hisoblanadi. Coase (1910-2013), Buyuk Britaniya, professor, 1991-yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotini olgan. Coase eng mashhur ikki g'oyasi bilan tanilgan, ular: a) Coase Theorem - Tashqi samaralar muammosini tushuntiradi, agar mulk huquqlari aniq va kelishuv xarajatlari past bo'lsa, odamlar o'zaro kelishib muammoni hal qiladi. b) Firma nazariyasi (1937-yil) Coase "Firmalar bozor orqali har bir ishni alohida qilish qimmatga tushgani yoki tranzaksiya xarajatlari bo'lgani uchun mavjud" degan.

16 EKC (Environmental Kuznets Curve — Atrof-muhit Kuznets egri chizig'i) modeli — ekologik-iqtisodiy adabiyotda eng mashhur va eng ko'p bahslashiladigan gipoteza. Bu model iqtisodiy o'sish (jon boshiga YIM) bilan atrof-muhit degradatsiyasi (masalan, CO<sub>2</sub> emissiyasi, SO<sub>2</sub>, suv ifloslanishi) o'rtasidagi munosabatni tavsiflaydi.



Strategik yondashuv orqali “yashil iqtisodiyot”ga o’tish strategiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli dekarbonizatsiya siyosatini belgilash va milliy darajada barqaror rivojlanish indikatorlarini joriy etish kerak.

Umuman, mamlakatdagi ishlab chiqarishda tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish iqtisodiy instrumentlar bilan birga institutsional rivojlanish, huquqiy mexanizmlar va ekologik madaniyatni shakllantirish orqali amalga oshiriladigan amaliy jarayon hisoblanadi. Shu bois milliy iqtisodiyotda tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish samaradorligi iqtisodiy o’sish, sanoat tuzilmasi va ekologik siyosat o’rtasidagi muvozanatga bog’liq bo’lib, faqat kompleks va tizimli yondashuv orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Aghion, P., Dechezleprêtre, A., Hémous, D., Martin, R., & Van Reenen, J. (2016). Carbon taxes, path dependency, and directed technical change. National Bureau of Economic Research. <https://doi.org/10.3386/w21898>
2. Dales, J. H. (1968). Pollution, Property & Prices: An Essay in Policy-Making and Economics. University of Toronto Press.
3. Ellerman, A. D., Joskow, P. L., Schmalensee, R., Montero, J.-P., & Bailey, E. M. (2000). Markets for Clean Air: The U.S. Acid Rain Program. Cambridge University Press.
4. Geissdoerfer, M., Savaget, P., Bocken, N. M. P., & Hultink, E. J. (2017). The Circular Economy – A new sustainability paradigm? Journal of Cleaner Production, 143, 757–768. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2016.12.048>
5. Kirchherr, J., Reike, D., & Hekkert, M. (2018). Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions. Resources, Conservation and Recycling, 127, 221–232. <https://doi.org/10.1016/j.resconrec.2017.09.005>
6. Montgomery, W. D. (1972). Markets in licenses and efficient pollution control programs. Journal of Economic Theory, 5(3), 395–418. [https://doi.org/10.1016/0022-0531\(72\)90043-0](https://doi.org/10.1016/0022-0531(72)90043-0)
7. OECD. (2019). Fiscal Policies for Better Environment: Trends and Opportunities for Policy Makers. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/689afed1-en>
8. OECD. (2020). Environmental policy stringency index. [https://doi.org/10.1787/ens\\_data-en](https://doi.org/10.1787/ens_data-en)
9. OECD. (2021). Policy instruments for the environment. <https://doi.org/10.1787/epr-2021>
10. Pearce, D. W., & Turner, R. K. (1990). Economics of Natural Resources and the Environment. Johns Hopkins University Press.
11. Pigou, A. C. (1920). The Economics of Welfare (4th ed.). Macmillan.
12. Stavins, R. N. (1998). What can we learn from the grand policy experiment? Lessons from SO2 allowance trading. Journal of Economic Perspectives, 12(3), 69–88. <https://doi.org/10.1257/jep.12.3.69>
13. Tietenberg, T. (2006). Environmental and Natural Resource Economics (7th ed.). Pearson.
14. Mirzaev, A. (2018). Atrof-muhitni muhofaza qilish soliqlari samaradorligi: O‘zbekiston misoli. Iqtisodiyot va ekologiya jurnali, 2(4), 45–58.
15. Rajabov, R. (2020). Ekologik siyosatda fiskal instrumentlar. Toshkent iqtisodiyot ilmiy axborotnomasi, 13(1), 22–37.
16. Ergashev, M. (2019). Chiqindilar solig‘i va atrof-muhit samaradorligi. Milliy iqtisodiyot tadqiqotlari, 5(8), 74–88.
17. Ismoilova, N. (2017). Carbon solig‘i: O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi. Iqtisodiy tahlil va boshqaruv, 9(2), 33–49.
18. UNEP. (2020). Global waste management outlook. <https://doi.org/10.18356/unep2020>
19. World Bank. (2022). Waste management report. <https://doi.org/10.1596/wb-2022>
20. Zhang, Y., et al. (2022). Environmental regulation and growth. Ecological Economics. <https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2022>.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 3

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---